



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 7-yanvar, № 3 (9174)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

RESPUBLIKA MAHALLALARIDA XAVFSIZ MUHITNI YARATISH YO'NALISHIDA YAXLIT MANZILLI ISHLASH TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–1-son qarori ijrosi natijasida mahallalarda jinoyatchilikni qariyb 1,5 baravarga kamaytirishga erishilganini inobatga olgan holda, shuningdek, mazkur yo'nalishda yaxlit ishlash tizimini joriy etish hamda mas'ul rahbarlarning vazifalarini belgilash maqsadida **qaror qilaman:**

1. Maqsadlar va ustuvor vazifalar

1. Quyidagilar ushbu qarorning asosiy maqsadlari etib belgilansin:

a) **ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirishni** ustuvor vazifa etib belgilagan holda mahallalarda xavfsiz muhitni ishonchli ta'minlash bo'yicha manzilli profilaktik chora-tadbirlar tizimini samarali joriy etish orqali jinoyatchilikni keskin kamaytirish;

b) **oila-turmush munosabatlari doirasida** hamda **ayollar va yoshlar tomonidan** sodir etilayotgan jinoyatlarning asl omillarini ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish orqali ularning barvaqt oldini olish bo'yicha yangi ishlash mexanizmlarini belgilash;

v) har qanday noqonuniy holatlar yuzasidan **murojaatlarga tezkorlik bilan munosabat bildirish** tizimini yaratish, bu boradagi faoliyatni **bevosita joylarda** samarali yo'lga qo'yish orqali **aholi roziliga erishish**.

2. Quyidagilar barcha mas'ul idoralar va muassasalar uchun mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish bo'yicha tashkiliy-profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishning **ustuvor vazifalari** etib belgilansin:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi **PQ–1-son qarori** bilan belgilangan mexanizmlarga muvofiq **ishlarni davom ettirish**;

b) har bir mahallada kriminogen vaziyatga salbiy ta'sir etuvchi omillar bilan ishlashning mahallalar kesimida har choraklik manzilli chora-tadbirlarini belgilash hamda ularning **mahalla — tuman — viloyat** darajasida ijrosi uchun bevosita **mas'ul rahbarlarni** biriktirish va zimmlariga aniq **javobgarlikni yuklash**;

v) mahalla hududida aholining **ijtimoiy-maishiy muammolarini hal etish** orqali oldini olish mumkin bo'lgan har bir jinoyat bo'yicha mahalliy **hokimliklarning mas'uliyatini oshirish**, ijtimoiy profilaktika subyektlari tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar samaradorligi yuzasidan **qat'iy so'rov tizimini yo'lga qo'yish**;

g) **oila-turmush munosabatlari doirasida** hamda **ayollar va yoshlar tomonidan** sodir etiladigan jinoyatlarni **"ilmiy xulosa — tavsiya — natija"** tamoyili asosida joylarga chiqqan holda maqsadli ilmiy-amaliy o'rganish orqali samarali **tashkiliy-huquqiy choralarni** belgilash;

(Davomi 2-betda).



BUYUK IPAK YO'LI QAYTA TIKLANMOQDA

TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA
XALQARO LOYIHALARDA O'ZBEKISTONNING TUTGAN MAVQEI TOBORA YUKSALIB BORMOQDA

Milliy statistika qo'mitasidan ma'lum qilinishicha, 2025-yilning yanvar — noyabr oylarida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 72,8 mlrd. AQSH dollariga yetib, 2024-yilning mos davridagiga nisbatan 13 mlrd. dollarga yoki 21,8 foiz ko'paydi. Bu yutuqlar zamirida davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan transport va logistika tizimida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar mujassam, albatta.

Sarhisob

— Dengiz portlaridan uzoqligimiz xalqaro savdo hajmini ko'paytirishga xalaqit berayotgan bo'lsa-da, davlatimiz rahbarining sa'y-harakatlari, pragmatik siyosati natijasida transport-logistika tizimlarini takomillashtirish uchun yirik xalqaro loyihalarga qo'l urilmoqda, — deydi iqtisodchi olim, professor Zilola Shomansurova. — Prezidentimiz

Turkmanistonning Avaza shahrida BMT shafeligida o'tkazilgan Dengizga chiqish imkonini bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha konferensiyada transport-logistika sohasidagi muammolarni bartaraf etish maqsadida bir qator aniq taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Bu g'oya BMT shafeligida dengizga chiqish yo'lga ega bo'lmagan mamlakatlar uchun tranzit kafolatlari to'g'risidagi global bitimni ishlab chiqish, logistika

integratsiyasiga ko'maklashish jamg'armasini tuzish hamda zaiflik global indeksini ishlab chiqish tashabbusini o'z ichiga oladi. Kelgusida bu portlar va kommunikatsiyalardan adolatli tarzda foydalanish shartlarini, yuk tashishda xavf-xatarlarni pasaytirishni va global logistikadagi notenglikni kamaytirishga, yirik infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Xalqaro ekspertlarning fikricha, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasidan o'rin olgan yirik loyihalar, ayniqsa, transport-logistika tizimidagi o'zgarishlar kelgusida mamlakatning dunyo hamjamiyatidagi nufuzini yanada oshirishga turtki beradi. Zero, unda aytilganidek, avtomobil yo'llarining sifatini yaxshilash, tranzit salohiyatini oshirish maqsadida Andijon — Qo'ng'iro't, Toshkent — Termiz,

Samarqand — Shahrisabz, Olot — Sariosiyo yo'nalishida uzunligi 4 ming kilometrlik xalqaro magistral "avtoban" qurishning besh yillik dasturi tez orada ishga tushiriladi. Joriy yilda esa Qoraqalpog'iston, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo bo'yab umumiy foydalanishdagi 300 kilometrlik avtoyo'l to'liq ta'mirlanadi. Bundan tashqari, hademay Toshkent — Samarqand, Toshkent — Andijon, Toshkent —

Bo'stonliq, Pungon — Namangan va Qarshi — Shahrisabz yo'nalishida yuqori tezlikda harakatlanishga mo'ljallangan 800 kilometrlik yo'llarni bunyod etish boshlanadi. Bu, albatta, yuzlab qishloq va mahallalar yanada go'zallashadi, yangidan-yangi korxonalar paydo bo'ladi, qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi, katta yo'l bo'ylarida zamonaviy infratuzilmalar paydo bo'ladi deganidir.



MAMLAKAT TARAQQIYOTIDA HAL QILUVCHI KUCH

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida yoshlar masalasiga alohida e'tibor qaratilib, mamlakatimiz mehnat bozorini yangi qiyofa asosida — kasb, malaka, texnologiya va ta'limni birlashtiradigan yagona mexanizm sifatida shakllantirish orqali yoshlarning zamonaviy kasblarga ega bo'lishiga ko'maklashish ustuvor vazifalardan biri sifatida ta'kidlandi.

Aks sado

Darhaqiqat, yigit-qizlarning professional tayyorgarligi va ijodkorlik salohiyati qancha yuqori bo'lsa, jamiyat kelajagi ham shuncha barqarorlashadi. Bugungi globallashuv davrida yoshlardan doimiy harakatda va kasb-korli bo'lish, kreativ va zamonaviy fikrlash orqali yangi g'oya va tashabbuslarni ilgari surish talab etilmoqda. Buning uchun zarur huquqiy asoslar mustahkamlangan, bandlikni ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun imkoniyat va imtiyozlar yaratilgan. So'nggi yillarda boshqaruv kadrlari tarkibi ham yoshardi. 40 yoshgacha bo'lgan rahbarlar ulushi 37 foizdan 65 foizga o'sgani Yangi O'zbekistonda "xalq xizmatidagi davlat"

tamoyilini ro'yobga chiqarishda iqtidorli, jonkuyar va yetakchilik qobiliyatiga ega yigit-qizlarga ishonch bildirilayotganidan dalolat.

"Yoshlar — Yangi O'zbekiston bunyodkorlari" degan g'oya amaliy ishlar bilan tasdiqlanib, bu borada turli islohotlar, dastur va loyihalar hayotga tatbiq etilib, tashabbuslarini ro'yobga chiqarish uchun byudjet mablag'lari yo'naltirilmoqda. Ko'rsatilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar tufayli yurtimizning turli hududlarida istiqomat qilayotgan kelajagimiz egalarining bandligi ta'minlanib, real daromadlari va yutuqlari ko'paymoqda. Ammo ijtimoiy hayotda yoshlarning qalbi va ongini egallash, qimmatli vaqtni o'g'irlashga qaratilgan ma'naviy tahdidlar ham tobora avj olayotgani sir emas.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

INSON HUQUQ VA ERKINLIK LARI USTUVORLIGI KAFOLATI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda elektron tijorat sohasini, shuningdek, tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni himoya qilish tizimini takomillashtirish, qo'riqlash faoliyati sohasidagi qonunchilik bazasini yanada mustahkamlashga doir qator qonun loyihalarini atroflicha ko'rib chiqildi. Parlament nazorati faoliyatiga doir masala ham muhokamalar markazida bo'ldi.

Elektron tijorat: ochiqlik va shaffoflik

Majlisda elektron tijorat sohasini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi elektron tijorat ishtirokchilari uchun zamonaviy logistika infratuzilmasiga ega milliy elektron tijorat makonini yaratish hamda bozor ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini

himoya qilishning huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan kiritilgan qonun loyihasida elektron tijorat sohasidagi iste'molchilar muomalasiga kirib borayotgan yo'nalishlarga oid "yangi elektron savdo platformasi va buyurtmalar agregatori operatorlari", "raqamli striming xizmati", "elektron tijorat ishtirokchilari", "transchegaraviy elektron tijorat" kabi atamalarga tushunchalar berilib, biznes jarayonlari va sohani soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish nazarda tutilmoqda.



2026-yilda:

viloyat, tuman hokimlariga samarasiz va bir-birini takrorlaydigan shtat birliklarini qisqartirib, tejalgan mablag'ni aholi o'rtaga qo'ygan masalalarni hal qilish uchun ajratishga ruxsat etiladi;



bu orqali
tumanlar
byudjetida
5 trillion

so'mlik qo'shimcha manba shakllanadi va u mahallalar infratuzilmasini yaxshilashga sarflanadi;

joriy yilda ilk bor mahalla infratuzilmasini rivojlantirish uchun

5 trillion
so'm viloyatlarning o'ziga beriladi.



Eng muhimi,

bu mablag'larning har bir so'mi aholi uchun qo'shilgan qiymat yaratishi zarur. Shu bois bu pullar, umuman, qaysidir tuman uchun emas, balki mahallada ish o'rinlari yaratadigan, aholini daromadli qiladigan aniq loyihalarga yo'naltiriladi.

INSON HUQUQ VA ERKINLIK LARI USTUVORLIGI KAFOLATI



1 Majlisda mazkur qonun loyihasi elektron tijoratning shaffof va ochiq ekotizimini yaratish, elektron tijorat platformalari va servislarini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotdagi yashirin aylanmalar hajmini qisqartirish, elektron tijorat munosabatlardagi iqtisodiy masalalarni yanada takomillashtirishga qaratilgan qayd etildi.

Muhokama davomida deputatlar tomonidan qonun loyihasidagi ayrim normalar bo'yicha aniqlashtiruvchi savollar berildi. Jumladan, **O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi Dilmurod Artiqov** qonun loyihasi bilan Soliq kodeksiga kiritilayotgan o'zgartirishga e'tibor qaratdi. Unga ko'ra, elektron savdo platformalari orqali tovarlarni realizatsiya qiluvchi chet ellik yuridik shaxslar endilikda soliq to'lovchi, ya'ni QQS to'lovchi sifatida ko'rsatilaypti. Deputat mazkur o'zgartirish narxlar oshishiga, xaridorlar faolligi pasayishiga olib kelmaydimi degan savol bilan qonun tashabbuskorlariga yuzlandi.

Ular bu bo'yicha atroflicha tushuntirish berib o'tishdi. Qonun loyihasiga mas'ul — **Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi raisi Ilhom Abdullayev** ushbu masala bilan bog'liq yavollari kuni kecha siyosiy partiyalar fraksiyalari yig'ilishlarida ham ko'tarilganini ta'kidlab, qo'mita qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlashda bunga alohida e'tibor qaratgan holda, ekspertlar ishtirokida ko'rib chiqish va tegishli yechim ishlab chiqishga tayyor ekanini bildirdi.

Munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Ayollar va bolalar himoyasi — dolzarb vazifa

Deputatlar tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda bolaning eng ustun manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan qonun loyihasini birinchi o'qishda muhokamadan o'tkazdi.

Aytilganidek, so'nggi yillarda O'zbekistonda ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish, jabrlangan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikda mavjud ayrim bo'shliqlar zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ko'mak berishda to'liq huquqiy mexanizmlarni ta'minlashni talab etyapti.

Ushbu qonun loyihasi bilan ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda ayollarni reabilitatsiya qilish markazlariga zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar manfaatlarini ko'zlab sudlarga davlat boji to'lamasdan murojaat qilish va sud majlislarida ularning vakili sifatida ishtirok etish huquqi berilishi nazarda tutilmoqda. Shuningdek, jabrlanuvchilar maxsus markazlarda bo'lgan davrda ish joyi va lavozimini saqlab qolish kafolatlanmoqda. Bundan tashqari, milliy qonunchilikka "bolaning eng ustun manfaatlari" tushunchasini kiritish orqali bolalar huquqlarini himoya qilish sohasidagi huquqiy asoslar takomillashtirilaypti.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan qizg'in savollar va bir qator takliflar o'rtaga tashlandi. Xususan, **O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi Saydullo Azimov** "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning sakkinchi xatboshisi "tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarning manfaatlarini ko'zlab, sudlarga davlat boji to'lamasdan ariza, shikoyat va da'volar taqdim etadi, sud majlislarida ularning vakili sifatida o'zining vakolatlari vakili orqali ishtirok etadi" degan norma bilan to'ldirilayotganini aytib, bunda jabrlanuvchilarning arizasi talab qilinadimi yoki ishtirok etuvchi vakolatlari vakili orqali ishtirok etadi bilan ham sudga da'vo arizalari kiritadimi degan savolni berdi. Shuningdek, deputat qonun loyihasida "bolaning eng ustun manfaatlari" tushunchasi, atamalar kiritilayotganini qayd etib, buni hujjatda yanada aniqroq yozish taklifini bildirdi.

O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi Xushvaid Hayitov, **"Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi Zuhriddin Mavlonov** qonun loyihasining ahamiyati, zaruratini qayd etgan holda uning ayrim normalarini yanada takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarini bildirdi.

Deputatlarning aytishicha, qonun loyihasining qabul qilinishi natijasida tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlar hamda ularning voyaga yetmagan farzandlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoyalashning huquqiy asoslari yanada mustahkamlanadi. Shuningdek, bolalar huquqlari himoyasi bo'yicha milliy qonunchilik xalqaro standartlarga uyg'unlashtiriladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Qo'riqlash faoliyati sohasidagi qonunchilik takomillashtirilmogda

Majlisda "Qo'riqlash faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini hamda obyektlarini tajovuzlardan himoya qilish samaradorligini oshirish, ushbu sohadaqi davlat siyosatini va qo'riqlashni amalga oshiruvchi subyektlar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tizimli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, Milliy gvardiya Qo'riqlash bosh boshqarmasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo'riqlash departamenti sifatida qayta tashkil etildi.

Shundan kelib chiqib, Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo'riqlash departamenti vakolatlarini belgilash hamda qonunchilik hujjatlarini muvofiqlashtirish zarurati yuzaga kelmogda.

Ushbu qonun loyihasi qo'riqlash faoliyati doirasini kengaytirishni, xususan, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini, ko'ngilochar va qurilish obyektlarini qo'riqlashni amalga oshirish bo'yicha huquqiy asoslarni belgilashni, shuningdek, Ichki ishlar vazirligining ushbu sohadaqi vakolatlarini aniqlashtirishni nazarda tutadi.

Loyiha bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga tegishli o'zgartirishlar kiritilib, Milliy gvardiya Qo'riqlash bosh boshqarmasi mansabdor shaxslariga tegishli bo'lgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llash vakolatlarini Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo'riqlash departamenti mansabdor shaxslariga o'tkazilmoqda.

Majlisda qonun loyihasida nazarda tutilayotgan normalar qo'riqlash faoliyati sohasidagi qonunchilik bazasini yanada mustahkamlash, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish hamda jamoat xavfsizligi va qonuniyligni ta'minlashga xizmat qilishi qayd etildi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Sudyalikka nomzodlar Senat mas'ul qo'mitalarida ko'rib chiqiladi

Senatning "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 21-moddasiga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish haqida"gi qonunchilik taklifi ko'rib chiqildi.

Ma'lumki, Konstitutsiyaviy sud sudyalari, Oliy sud raisi, rais o'rinbosarlari va sudyalari, Sudyalar oliy kengashi raisi, rais o'rinbosari, uning a'zolari lavozimlariga saylash uchun nomzodlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Senatga taqdim etiladi va ularni saylash to'g'risidagi masala parlament yuqori palatasining navbatdagi majlisida Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan hal qilinadi.

Mazkur qonunchilik taklifi bilan sudyalikka nomzodlarni ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish taklif etilmogda.

Xususan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida"gi Qonunga sudyalarni lavozimlariga saylash uchun nomzodlar dastlabki tarzda Oliy Majlis Senatining mas'ul qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqilishi hamda uning yakunlari bo'yicha qo'mita tomonidan xulosa qilinishi bilan bog'liq qo'shimcha va o'zgartirish kiritilmoqda.

Mazkur taklif parlament tomonidan sudyalik lavozimlariga malakali kadrlarni saylash jarayonlarini takomillashtirishga, nomzodlar ochiq va shaffof baholanishini ta'minlashga, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishdagi mas'uliyatini kuchaytirishga qaratilgan.

Majlisda qonunchilik taklifi bo'yicha qaror qabul qilindi.

Parlament nazorati samaradorligi yanada mustahkamlanadi

Majlisda ko'rib chiqilgan navbatdagi masala — parlament nazorati faoliyatining asoslarini yanada mustahkamlashga qaratilgan Senatning qonunchilik taklifi bo'ldi.

Mazkur taklif bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunga Senat qo'mitalari tomonidan davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining Konstitutsiya va qonunlarni,

davlat dasturlarini ijro etish bo'yicha axborotini eshitish vakolatini mustahkamlashga qaratilgan o'zgartirish kiritilmoqda.

Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi Qonunga tuzatish kiritilib, deputat va senator palataga hisobdord organ yoxud mansabdor shaxsning hisoboti yoki axborotini nafaqat palata majlisida, balki endilikda o'zi a'zo bo'lgan qo'mita majlislarida ham eshitish to'g'risida taklif kiritishga haqliligi nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, "Parlament nazorati to'g'risida"gi Qonunning tegishli moddalariga o'zgartirish kiritilib, Qonunchilik palatasi va Senatning qo'mitalari tomonidan davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining Konstitutsiya va qonunlarni, Oliy Majlis palatalari va ularning organlari qarorlarini, davlat dasturlarini ijro etish, shuningdek, o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarni amalga oshirish bo'yicha axborotini eshitish vakolati aniq belgilanyapti.

Shu bilan birga, "Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunga ham o'zgartirishlar kiritish taklifi ilgari surilmoqda. Ya'ni qo'mita majlislarida davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining axborotini eshitishda Hukumat tegishli rahbarlarining ishtirokini ta'minlashi aks etmoqda. Bu Oliy Majlis palatalari ular organlarining parlament nazoratini amalga oshirish sohasidagi vakolatlarini mustahkamlanishiga, davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining o'z faoliyati yuzasidan javobgarligi va hisobdordligini oshirishga hamda Konstitutsiya va qonunlar, davlat dasturlarining bajarilishi yuzasidan parlament tomonidan tizimli nazorat o'rnatilishiga xizmat qiladi.

Majlisda qonunchilik taklifi bo'yicha qaror qabul qilindi.

Maqsadli eksport ko'rsatkichlari ijrosi qanday ta'minlanmogda?

Deputatlar Qishloq xo'jaligi vaziri I. Abdurahmonovning "Mamlakatimizda eksportbop meva-sabzavot mahsulotlari hajmini ko'paytirish va maqsadli eksport ko'rsatkichlarining bajarilishi borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi parlament so'roviga berilgan javobini ko'rib chiqdi.

Unda keltirilishicha, so'nggi yillarda bu borada kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida"gi va "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish to'g'risida"gi yaxlit qonunlar hamda Suv kodeksi qabul qilinib, qishloq xo'jaligidagi islohotlarning huquqiy poydevori mustahkamlandi.

2025-yilda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati sohasida xalqaro standartlar talablarini joriy etib, sertifikatlangan korxonalar sonini 2032 taga yetkazish belgilangan bo'lib, bu ko'rsatkich 2045 taga yetkazildi va reja 101 foizga bajarilgan. Bugungi kunda organik sertifikat beradigan 12 ta muvofiqlikni baholash organi faoliyat yuritmoqda.

Fermer va qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan 10 ming gektarda organik mahsulot yetishtirish bo'yicha vazifa belgilangan bo'lib, amalda 36 ta subyektlar jami 10,3 ming gektar yerda shu ish bilan shug'ullangan. Ushbu maydonlardan jami 26,5 ming tonna hosil olingan bo'lsa, respublikada "GlobalG.A.P." xalqaro tan olingan standart talablari asosida 955 gektar maydonda 14 ming tonna meva-sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirilgan.

Parlament so'roviga kelgan javobda qayd etilganidek, xalqaro standartlarni joriy qilgan 48 ta qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat korxonasiga davlat tomonidan 2025-yilda 3,8 mlrd. so'm moliyaviy yordam ajratilgan.

Bugungi kunda respublikada qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati sohasida amalda 4 233 ta standart mavjud bo'lib, shundan 1 957 tasi xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirilgan. Amaldagi standartlarni JST talablariga moslashtirish bo'yicha esa 410 ta standart ko'rib chiqilgan.

2025-2026-yillarda hududlarda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va import o'rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha 10,4 trln. so'mlik 673 ta loyihaning manzilli ro'yxati shakllantirilib, amalga oshirish bo'yicha tizimli monitoring yo'lga qo'yilgan.

2025-yilda fermer va qishloq xo'jaligi korxonalarida jami 3,9 mln. gektarga ekin ekilgan bo'lsa, 898 ming gektarda takroriy ekinlar parvarishlanib, 12,8 mln. tonna, shundan 5,1 mln. tonna oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirilgan. Eksport geografiyasi esa 95 ta davlatni qamrab olib, Rossiya, Afg'oniston, Qozog'iston, Pokiston va Xitoy asosiy savdo hamkorlari sifatida yetakchi o'rinnarni egalladi. Yaponiya, AQSH, Koreya Respublikasi va Yevropa davlatlari bozorlariga chiqish bo'yicha ham tizimli ishlar olib borilmoqda.

Deputatlar ushbu yo'nalishda vazirlik tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilgani, shu bilan birga, qishloq xo'jaligida eksportbop meva-sabzavot mahsulotlari hajmini ko'paytirish, mahsulotlarning sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha tegishli tavsiyalar berdi.

Majlisda mazkur masala yuzasidan doimiy parlament nazorati olib borilishi qayd etilib, Qishloq xo'jaligi vazirining javobi ma'lumot uchun qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

BUYUK IPAK YO'LI QAYTA TIKLANMOQDA

TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA XALQARO LOYIHALARDA O'ZBEKISTONNING TUTGAN MAVQEI TOBORA YUKSALIB BORMOQDA



1 Buyuk Ipak yo'li savdo chorrahasining markazida joylashgan O'zbekiston, bir tomondan, Xitoy va Janubiy Yevropa, ikkinchi tomondan, Hindiston yarimoroli va MDH, Shimoliy Yevropa o'rtasida yuk oqimlari logistikasining muhim provayderiga aylanish uchun noyob imkoniyatga ega. Shu sababli, mamlakatimiz Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston strategik temir yo'l loyihasiga katta e'tibor qaratmoqda. Mazkur loyiha bugungi kunda "Asr qurilishi" sifatida e'tirof etilmogda.

Transport vazirligi ma'lumotiga ko'ra, Qashqar — Torug'art — Makmal — Jalolobod — Andijon xalqaro transport yo'lagi yo'nalishi 20 ta bekat, 42 ta ko'prikl va 25 ta tunnelni o'z ichiga oladi. Temir yo'l qurilishi 2030-yil oxirigacha yakunlanishi, liniyaning uzunligi 532,53 km. bo'lishi, shuningdek, yo'nalishda yuk tashish hajmi yiliga 15 mln. tonnaga yetishi kutilmoqda. Albatta, loyihada yo'nalish bo'ylab zamonaviy tranzit-logistika infratuzilmasi, omborxona va terminallar barpo etilishi ham nazarda tutilgan. Mazkur temir yo'l liniyasining qurilishini tom ma'noda Buyuk Ipak yo'lining qayta tiklanishi, deya baholash mumkin.

Kelgusida Xitoydan Turkiya, Eron, Turkmaniston, Afg'oniston, Pokistonga tashilayotgan yuklarning 10 mln. tonnaga yaqin qismi Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston yo'nalishiga jalb etiladi. Bu, o'z navbatida, butun mintaqa mamlakatlari uchun beqiyos logistika yo'lagini yaratadi. Aniqlirog'i, yuk tashish hajmi 2040-yilga borib 4 barobargacha oshishi mumkinligi hisob-kitob qilingan. Bularning barchasi ushbu loyihaning nafaqat transport infratuzilmaviy, balki iqtisodiy ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li Xitoy — Markaziy Osiyo o'rtasidagi eng qisqa quuruqlik yo'lagi sifatida paydo bo'lib, mavjud marshrut uzunligini 1035 kilometrga, tovarlarni yetkazib berish vaqtini bir haftaga qisqartiradi. Temir yo'l liniyasi qurilish ishlari yakunlanganidan so'ng Xitoy va Yevropa hamda Janubiy Osiyo o'rtasida eng qisqa, barqaror quuruqlik transport marshrutlari yaratilishi natijasida Xitoy — Yevropa yo'nalishida tashish masofasi 900 kilometrga, Xitoy — Janubiy Osiyo o'rtasida esa 1000 kilometrga, tashish vaqtlari mos ravishda 1 haftaga qisqaradi. Bu davlatlar uchun ham, xususi biznes uchun ham beqiyos quaylik demakdir.

— Geosiyosiy qaltis bo'lgan hozirgi vaziyatda O'zbekiston uchun yana bir transport-logistika yo'nalishi — Transafg'on loyihasining ahamiyati yanada ortmogda, — deydi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish muammolarini o'rganish markazi direktori Bekzod Xolmatov. — Rossiyan Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan bog'lovchi

Shimol-Janub yo'lagiga muqobil bo'lgan Belarus — Rossiya — Qozog'iston — O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston — Hind okeani portlari multimodal transport yo'nalishi mintaqa iqtisodiyotining yangi "qon tomiri" sifatida ro'yobga chiqadi.

2025-yilning 17-iyul kuni Kobul shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston, Afg'oniston va Pokiston tashqi ishlar vazirlarining birinchi uch tomonlama uchrashuvida O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston temir yo'lining texnik-iqtisodiy asosini ishlab chiqish bo'yicha bitim imzolandi. Mazkur loyihaning ishg'a tushishi O'zbekiston transport-logistika sohasining global transport-logistika tizimlariga integratsiyasini jadallashtiradi, yurtimizdan yuklarning jahon bozorlariga yetib borishini osonlashtirib, va narxlar barqarorlashuviga katta turki bo'ladi. O'z navbatida, O'zbekistonga kirib kelayotgan



import mahsulotlar qiymatidagi transport xarajatlarini keskin kamaytiradi.

Transport vazirligi ma'lumotlariga qaraganda, 2025-yilning yanvar — noyabr oylarida respublika bo'yicha avtomobil, temir yo'l va havo transporti orqali jami 1,4 mlrd. tonna yuk tashilib, o'sish sur'ati 4,6 foizni tashkil qildi. Shunga mos ravishda transport xizmatlari eksporti 2 mlrd. 268 mln. dollarga yetib, o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 30 foiz o'sdi. Shuningdek, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston multimodal transport koridorida yuk tashish hajmi 2 barobar oshib, 1 mln. 494 ming tonnani tashkil etdi. Bu ko'rsatkich bundan besh yil avval 35 ming tonnaga ham bormasdi. O'zbekiston — Turkmaniston — Qozog'iston — Ozarbayjon — Gruziya — Yevropa o'rtasidagi multimodal "O'rta koridor" bo'ylab tashilgan yuklar hajmi esa 1 mln.

Asosiy e'tibor sohada natijadorlikni ta'minlashga qaratilmoqda. Buni esa mutaxassislar malakasini oshirmasdan ro'yobga chiqarib bo'lmaydi. Shu sababli Xalqaro avtomobil transporti ittifoqi bilan hamkorlikda Xalqaro avtomobil transporti sohasida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha mintaqaviy o'quv markazi tashkil etilmogda. Kelgusida tizimda raqamlashtirishni keng joriy etish, xizmatlar ko'rsatishda inson omilini kamaytirish, zamonaviy va tezkor faoliyat ustuvorligini ta'minlash — ko'zlangan maqsadlarga keng yo'l ochadi.

Abdunabi ALIQULOV
("Xalq so'zi").

MA'NAVIYAT — MAFKURAVIY XURUJLARGA QARSHI QALQON

Bugungi o'ta murakkab globallashuv zamonida, dunyoning turli nuqtalarida ziddiyatlar avj olayotgan bir sharoitda har bir davlat uchun milliy xavfsizlik hamda xalq tinchligi eng olly qadriyatga aylanmoqda. Xalqaro xavfsizlik tizimlarining mo'rtlashib borishi bizdan nafaqat hushyorlikni, balki mamlakat kelajagi uchun mas'ul bo'lgan mustahkam ma'naviy asoslarni yaratishni ham talab etmoqda.

Nuqtai nazar

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, mamlakatimiz aholisining 60 foizidan ko'prog'ini tashkil qiluvchi yoshlar bizning asosiy tayanchimiz va umidimizdir. Agar jamiyatni muhtasham bir imorat deb tasavvur etsak, uning poydevori, shubhasiz, yigit-qizlardir. Binoning qanchalik baland va mustahkam bo'lishi uning asosiga bog'liq bo'lgani kabi, davlatning barqarorligi va xavfsizligi o'sib kelayotgan avlodning dunyoqarashi hamda ma'naviy qiyofasiga bevosita bog'liq.

Shu bois yoshlarni vatanparvar, yuksak ma'naviyatli hamda fidoyi qilib tarbiyalash — hayotiy zarurat. Hozirgi vaqtda xavf-xatarlar nafaqat chegaralarda, balki insonlarning qalbi va ongida ham namoyon bo'lmoqda. Bizning milliy mentalitetimizga, axloqiy qadriyatlarimizga zid bo'lgan "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi yot g'oyalari yoshlar ongini zaharlashga urinmoqda. Bunday sharoitda jarayonlarga ma'naviyat ko'zi bilan qarash muhim ahamiyat kasb etadi.

E'tiborni har qachongidan ko'ra kuchaytirish talabi

Ma'naviyat bu shunchaki chiroyli so'zlar ifodasi emas, balki milliy manfaatlarimizni himoyalovchi kuchli qalqondir. Biz hayotimizga kirib kelayotgan har qanday yangilikni milliy qadriyatlarimiz elagidan o'tkazishimiz, uning aholi turli qatamlariga, ayniqsa, yoshlarga ta'sirini chuqur tahlil qilishimiz shart. Milliy o'zligimizga yot bo'lgan qarashlarni o'z vaqtida aniqlash va ularga nisbatan ma'naviy immunitetni shakllantirish — tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning eng samarali yo'lidir. Shu ma'noda, yurtimizda ma'naviyat masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Zero, biz Yangi O'zbekistonning poydevorini



zamonaviy bilimlar qatorida, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan sug'orilgan ma'naviyat asosida barpo etmoqdamiz. Shunday bo'lsa-da, bugun ko'z o'ngimizda sodir bo'layotgan hodisalarning o'zi hayotning achchiq haqiqatidan saboq chiqarishga undaydi. Haqiqat shuki, katta davlatlar o'rtasida dunyoni, tabiiy resurslarga boy o'lkalarni taqsimlash "o'yin"lari hamon tinganicha yo'q.

Eng achinarlisi, yosh mustaqil davlatlarni tanlab olgan taraqqiyot manzilidan, orzu-maqсадlariga erishish, yangi jamiyat qurish yo'lidagi qaytarmoqchi bo'lganlar, avvalo, dunyoqarashi shakllanib ulgurmagan yoshlarning qalbi va ongining mo'rtligidan foydalanishga, ularni begona g'oyalari bilan chalg'itib, o'zining g'arazli niyatlarini amalga oshirish yo'lidagi qurol qilib olishga urinayotgani sir emas.

Shu sababdan ham bugun dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar tahlilida ularga, eng avvalo, ma'naviyat ko'zi bilan qarash, hayotimizga kirib kelayotgan, axloqimizga, mentalitetimizga zid g'oyalarni aniqlash, aholi turli qatamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga mos kelmaydigan jihatlarni ochib berish va tabiiyki, zarur choralar ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosatda "Sen uxlaganingda dushmaning uyg'oq bo'ladi" degan naql bejiz aytilmaydi. Ma'naviy jihatdan g'ofilikka hech kimning haqqi yo'q. Loqaydlikka chek qo'yish, mudroq holatdan uyg'onish kerak. Buning uchun esa, avvalo, ilm sari

harakat qilish, oila, bog'cha, maktab, oliy ta'lim, mahalla, mutasaddi muassasalar hamda jamoat tashkilotlari muntazam ravishda hamkorlikda ish olib borishi zarur.

Albatta, ma'naviy tarbiya bilan bog'liq ishlar oson vazifa emas. U har bir inson, har bir oila, har bir siyosiy partiya va harakatdan, butun jamiyatdan ogohlik, jiddiy e'tibor hamda uzluksiz mehnatni talab qiladi. Ayniqsa, bugungi kunda — mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olgan hozirgi nozik, qaltis sharoitda bu nihoyatda dolzarb masala. Agar ma'nau va ruhan sog'lom, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata biladigan, bu murakkab hayotning pastu baland ko'chalaridan to'g'ri yo'lni adashmay

ruh va vatanparvarlik tarbiyasiga bog'liq bo'lgan. Vatanimiz tarixida aynan shu ulug' tuyg'u sabab tashkilotlari muntazam ravishda hamkorlikda ish olib borishi zarur. To'maris, Spitamen, Mahmud Torobiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo bular ma'naviy ruh, mardlik va shijoat, millatparvarlik, vatanparvarlik tuyg'usi bilan askarlarini qudratli kuchga aylantirgan olgan yurt qalqonlaridir.

Shu ma'noda, bugun mamlakat Qurolli Kuchlari tizimida ham yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlariga katta e'tibor qaratilyapti. Bundan

shakllantirishdan iborat. Biz, kattalar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida "Kelajagi buyuk davlat qurishda yoshlar hal qiluvchi kuchdir!" degan tamoyilga rioya etib, tizimli ishlarni izchil tashkil qilsak, bu yo'lda bor kuch va imkoniyatimizni safarbar etsak, salmoqli natijaga erishishimiz muqarrar.

Har bir inson uchun Vatan taqdir bilan belgilangan va tarixan ato etilgan hududdir. Vatanga sodiq odamning g'urur-iftixori yuksak, maqsadlari aniq bo'ladi. U hayotning har qanday sinovlariga bardosh bera oladi. Hatto, cho'lda o'rimalab yurgan jonivorlar, havoda uchuvchi qushlar ham, dengiz va daryolardagi baliqlar ham o'z oshyonlariga oshiqadi, qo'riydi-qo'riqlaydi.

Vatan hissi bu o'z xalqini sevmok, hurmat qilmoq, qadriga yetish va e'tirof etmoqdir. Mustaqil yurtimizda yashayotgan har bir insonning baxti bevosita Vatanimiz ravnaqi bilan bog'liq. Shu sababli, Vatan taraqqiyoti uchun bor bilimi, kuchi va salohiyatini sarflash O'zbekiston Respublikasida yashayotgan barcha fuqarolarning muqaddas burchiga aylanmog'i darkor. Bu esa har bir yurtdoshimizni o'zining ma'naviy kamoloti uchun mas'uliyatni his qilishi, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashida namoyon bo'ladi.

Ayonki, vatanparvarlik — insonning o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan zaminiga bo'lgan muhabbatini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy fazilatlar mujassami. Vatanparvarlikning asosiy belgisi esa — fidoyilik, oliy ko'rinishi esa jasorat hisoblanadi. Ana shu fidoyilik va jasorat xalqimizning ma'naviy merosida hamda ajdodlarimiz timsolida o'z aksini topgan.

Xalqimiz azaldan o'z o'g'lonlarini mardlik hamda halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab keladi. Ajdodlarimizning Vatan ravnaqi, tinchligi yo'lidagi jasoratlari, mustaqillikka erishguncha davr mobaynida bosib o'tgan mashaqqatli yo'lning asl mohiyatini anglash va shu tariqa o'tmish tarixini o'rganish yosh avlod uchun harbiy vatanparvarlik tushunchasini chuqur anglab yetishda asosiy omillardan hisoblanadi.

Demak, kuchli ruhiy-ma'naviy tarbiya mamlakat yoshlari uchun eng muhim vositadir. Aynan ma'naviy-ruhiy tarbiya kerak paytda qalqon, kerak paytda himoya quroli vazifasini o'taydi.

Komila KARIMOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha
birinchi prorektori.

Qulaylik

ONA VA BOLA SALOMATLIGI DOIMIIY E'TIBORDA

Yangi yilning ilk kunlarida Qorako'l'da tumanlararo perinatal markazining yangi binosi foydalanishga topshirildi. Ushbu loyiha ro'yobi uchun 4 milliard so'm miqdorida mablag' sarflangan. Bemorlarga mo'ljallangan palatalar, shifokorlar kabinetlari, tibbiy tahlillar, jarrohlik amaliyotlari o'tkaziladigan xonalar, kutish zallari — barcha-barchasi zamonaviy talablar asosida jihozlangan. Markazdan Osiyo taraqqiyot banki krediti asosida sotib olingan eng so'nggi rusumdagi tibbiy texnika vositalari ham o'rin oladi.

— Bu 2026-yilda nafaqat Qorako'l, balki qo'shni Olot va Jondor tumanlarida istiqomat qiluvchi yosh oilalar uchun ham munosib tufta bo'ldi, — deydi mahalla faoli M. Rajabova. — Negaki, bolajon xalqimiz — farzandning to'rt muchasi sog'lom dunyoga kelishi xonadonimizga yorug'lik olib kiradi. Qo'shqavatl, zamonaviy binoda ona va bola salomatligini ishonchli muhofaza etish, shifokorlarning o'z burchini sidqidildan bajarishi uchun zarur barcha qulayliklar mavjud. Biz davlatimiz tomonidan tibbiyot xodimlariga shunday imkoniyat yaratilib, ularning mehnati munosib rag'batlantirilayotganidan mamnunmiz!

Yangi inshoot eng chekka hududlarda yashovchi aholi ham sifatli tibbiy xizmatdan bahramand bo'lishiga ustuvor vazifa sifatida qaralayotgani ifodasidir.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi").

ODAM SAVDOSI:

Bugun "odam savdosi" degan tushuncha faqat jinoyatlar statistikalari uchraydigan atama emas, balki inson taqdirini chilparchin qilayotgan og'ir ijtimoiy fojia sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu illat chegarani tan olmaydi, til hamda millat ajratmaydi, to'siqslarga chap beradi va eng avvalo, ishonuvchan yoshlar va ayollarni nishonga oladi. Yolg'on va d'alal, soxta ish takliflari va firibgarlikka ustasifarang hisoblangan kimsalar insonning eng muqaddas huquqlari — erkin mehnat qilish, halol daromad topish va munosib hayot kechirish huquqlarini poymol etadi.

Mulohaza

BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har yili taxminan 2,7 million kishi odam savdosining qurboniga aylanmoqda. Xalqaro ekspertlarning baholashicha, ushbu illat o'rtidan olinayotgan yillik daromad 7 mlrd. dollardan ziyod. Globallashib borayotgan savdoning 80 foizi ayollar va bolalar hissasiga to'g'ri keladi. Har yili dunyo bo'yicha 600 — 800 ming nafar ayol va bolalar aldov yo'li bilan xorijiy mamlakatlarga mo'maygina pul evaziga sotib yuborilmoqda. Ayni chog'da bu illatning uchta keng tarqalgan turi mavjud: jinsiy ekspluatatsiya, majburiy mehnat va odam a'zolarining sotilishidir. Bu jinoyatning tagzamariga nazar tashlasak, ma'naviy qashshoqlik, mol-dunyoga haddan ziyod hirs qo'yishni ko'ramiz. Ana shu sababli, davlatimiz rahbari

tomonidan bu muammoga alohida e'tibor qaratilmoqda. Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda tashkillashtirilgan tartibda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari bu sohada huquqiy kafolatlarni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi tomonidan o'tgan yilning 11 oyi davomida 27 403 nafar fuqaroga moddiy, huquqiy va ijtimoiy yordamlar ko'rsatilgani odam savdosiga qarshi kurashda davlat tomonidan nafaqat huquqiy, balki real ijtimoiy himoya mexanizmlari samarali ishlayotganini yaqqol namoyon etadi. Jumladan, murakkab

moliyaviy vaziyatga tushib qolgan 1 033 nafar fuqaroga bir martalik moddiy yordam berildi. Shuningdek, xorijda og'ir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan 3 275 nafar fuqaro O'zbekistonga qaytarildi va ularning 1 591 nafarini ayollar tashkil etadi. Shu raqamlarning o'ziyoq odam savdosiga qarshi kurash va bu illat tuzog'iga tushib qolgan kishilar taqdiriga davlatimiz bee'tibor emasligini, hukumatimiz tomonidan izchil, tizimli va doimiy ravishda amaliy ishlar yo'lga qo'yilganini ko'rsatadi.

Aslida, odam savdosiga qarshi kurash faqat davlat organlari zimmasidagi vazifa emas, bu ofatga butun jamiyat qarshi turmogi lozim. Qilib loqdam, shahardami, tavakkal qilish chet elga ish izlab ketayotgan kishini qo'shnisi, qarindoshlari bilmaydi deb o'ylaysizmi? U bu rejasini oshkora amalga oshiradi, ba'zan xorijda bir amallab ish topgan do'sti yo qondoshi unga

BEFARQLIK — ENG KATTA XAVF

qo'ng'iroq qilib "Ishlamoqchimisam, kelaver, biror chorasini topamiz, bekor qolmayсан" deydi.

Jinsiy zo'ravonlik, odam tanalarini sotish yo'nalishidagi savdodagi nayranglar esa yanada ajabtovur, va d'alal — uyquqni qochiradigan. Qarabsizki, echki-uloq, sigir-buzoq sotilgan, chipta olingan, ne-ne orzular qanotida samolyotga, poyezdga chiqiladi. Shu tariqa, inson gohida ko'ra-bila turib, tavakkal o'rtidan o'zini parvona kabi cho'qqa uradi. Shu bois ham jamiyatning hushyorligi, axborot almashuv va faol fuqarolik pozitsiyasi nihoyatda zarur, u ushbu tahdidga qarshi eng samarali vositalardan biridir.

Unutmang, yurtimizda har bir inson e'tibordan chetda emas. Yoshlarning istiqboli, ta'lim olishi uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilgan. Shunday ekan, ertaga pushaymon bo'lmaslik uchun davlatimiz yaratib berayotgan imtiyoz imkoniyatlarga tayangan holda ilmi, bilimni, qo'lidagi ish keladigan mutaxassis bo'lishga intilish zarur. Bunday inson esa aldanib, birovlarning qarmog'iga tushib qolmaydi.

Sardor NISHONOV,
Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Migratsiya
agentligining nizolarni
sudgacha va sudda hal etish
bo'limi bosh mutaxassisi.



Shaxmat:

ABDUMALIK — "NORTH AMERICAN OPEN" TURNIRI G'OLIBI

AQSHning Las-Vegas shahrida mukofot jamg'armasi 130 000 dollari tashkil etuvchi "North American Open — 2025" xalqaro shaxmat turniri yurtimiz vakillari uchun muvaffaqiyatli yakunlandi.



Xususan, grossmeysterimiz Abdumalik Abdusalimov 125 nafar shaxmatchi o'rtasida 6,5 ochko jamg'arib, musobaqa g'olibiga aylandi. Ikkinchi o'rin eronlik grossmeyster Gayem Magami Ehsonga, bronza medali esa hindistonlik grossmeyster Kustav Chatterjiga nasib qildi.

Shuningdek, hamyurtlarimizdan xalqaro toifadagi sport ustasi Muhammadali Abdurahmonov ham 6,5 ochko bilan musobaqani qo'shimcha ko'rsatkichlarga ko'ra 5-pog'onada yakunlagan bo'lsa, xalqaro toifadagi sport ustasi Saidakbar Saidaliyev 5,5 ochko bilan 27-o'rinni egalladi.

Futbol:

OSIYO KUBOGI

BAHSLARI BOSHLANDI

Saudiya Arabistonida 23 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasidagi Osiyo kubogi bahslari boshlandi. Mazkur musobaqada Ravshan Haydov murabbiyligidagi O'zbekiston terma jamoasi ham

Turnirda yangi Olimpiya terma jamoasini shakllantirish uchun "U21" yosh toifasidagi jamoamiz ishtirok etadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad — 2028-yilgi Los-Anjeles Olimpiadasiga tayyorgarlik. "V" guruhidan o'rin olgan jamoamiz Livan (7-yanvar), Eron (10-yanvar) va Janubiy Koreya (13-yanvar) bilan "play-off" bosqichi yo'llanmasi uchun kurash olib boradi.

Dastlabki ikki bahs Toshkent vaqti bilan soat 19:00 da boshlansa, 3-turdagi bellashuv 16:30 da start oladi.

HAMYURTIMIZ

GONKONGDA E'TIROF ETILDI

Bugungi kunda Osiyo yashil maydonlarida ko'plab futbolchilarimiz muvaffaqiyatli to'p surib kelmog'da. Xususan, Iroq, BAA, Malayziya, Indoneziya, Gonkong, Eron chempionatlarida o'zbekistonlik to'p'teparlarning salohiyati ham e'tirof etilayotir.

Jumladan, 2018-yilda Xitoyda uyushtirilgan "U23" Osiyo kubogi g'oliblaridan biri, markaziy himoyachi Doston Tursunov Gonkong birinchiligida o'tgan o'yinging eng yaxshi o'yinchisi, deb topildi. "Li Man" jamoasida to'p surayotgan 30 yoshli futbolchi dekabrda 3 ta o'yinda qatnashib, 2 ta gol urdi va klubning muhim g'alabalariga o'z hissasini qo'shdi.

D. Tursunov shu kungacha Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Eron kabi davlatlarning mahalliy chempionatlarida legioner maqomida to'p tepgan.

Sunnatilla ISLOMOV
("Xalq so'zi") tayyorladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi jamoasi Konstitutsiyaviy sud eksperti
Saidbek AZIMOVning
vafoti munosabati bilan marhumning yaqinlari va oila a'zolariga chuqur ta'ziya izhor etadi.

2026/2027 o'quv yilidan Kattaqo'rg'on davlat pedagogika institutida Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti bilan hamkorlikda muhandislik yo'nalishlari bo'yicha fakultet tashkil etish choralari ko'riladi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'ktir RAHMATOV

2020-yil 25-marta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; ko'itbiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqrig qilinmaydi va mualliga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyrga kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir G'. Bahromov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.00 Topshirildi — 23.20 **1 2 3 4 5 6**